



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, iyun.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeveva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TURIZMDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	21
Ergashkulov Muyinjon Umedovich	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKNING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI VA MOLIYAVIY FAOLIYATI TAHLILI	28
Misirov Asliddin Mamasobirovich Eshdavatov T.A.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOT KO'RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....	32
Misirov Asliddin Mamasobirovich Qodirov B.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISHNING ME'YORIYHUQUQIY ASOSLARI	36
Misirov Asliddin Mamasobirovich Saidmurodov J.N.	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKD MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH AMALIYOTI	40
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xalilov J.H.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	45
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xamroqulov A.X.	
GEOMETRIC FIGURE DRAWING USING MODERN PROGRAMMING LANGUAGES.....	49
Daminova Barno Esanovna Asrorova Nilufar Bobur qizi Botirova Shodiya Turdimurod qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI	56
Baxtiyorova Vasila Muzaffarovna	
XORAZM VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	60
Kurbanbayev Shoxruh Mirzo Zafar o'g'li	
XOTIN-QIZLAR BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLARI.....	65
Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi	
GLOBAL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI, EKSPORT VA IMPORT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	69
Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	



O'ZBEKISTONDA GID VA EKSKURSOVODLAR SOHASIDA INNOVATSIYALAR VA YANGILIKLAR.....	73
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
Xojaqulova Nargiza	
MA'LUMOTLAR BAZASIDA MURAKKAB SO'ROVLAR YARATISHNING NAZARIY	
ASOSLARI, FORMAL MODELLARI VA OPTIMALLASHTIRISH NAZARIYASI.....	78
Daminova Barno Esanovna	
Shermatova Shaxzoda Bakhtiyor qizi	
Ne'matova Sevinch Ismat qizi	
Xolmakhmatov Navruzбек Farrux o'g'li	
THE ROLE OF CLOUD COMPUTING IN ENHANCING ENTERPRISE PERFORMANCE.....	83
Daminova Barno Esanovna	
Jumayev Khayit Fayzullo ugli	
Normuminov Zayniddin Bekmurod ugli	
Bozorov Ilkhom Soatmurod ugli	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND MACHINE LEARNING APPLICATIONS	
IN MODERN INFORMATION SYSTEMS.....	88
Daminova Barno Esanovna	
Nurmamatov Nodirbek	
Turdimurodov Tulkin	
Xudoyorov Sardor	
RAQAMLI INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI VA TATBIQI	93
Daminova Barno Esanovna	
Jo'rayeva Xusniya Murtozoqul qizi	
Beshimova Munisa Usmon qizi	
BIG DATA ANALYTICS: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES FOR DECISION-MAKING PROCESSES.....	97
Daminova Barno Esanovna	
Narimonova Sevinch Shaka kizi	
Pulatkhonova Sitabonu Vohid kizi	
BLOCKCHAIN TECHNOLOGY AND ITS IMPACT ON SECURE DIGITAL TRANSACTIONS	102
Daminova Barno Esanovna	
Ruziyeva Oynisa Rahimkul kizi	
Hamidova Nozima Ulugbek kizi	
AHOLI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM DARAJASINING ROLI.....	108
Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi	



AHOLI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM DARAJASINING ROLI

Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi

Andijon davlat texnika instituti

"Iqtisodiyot" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Email: kozimjonovasaidaxon837@gmail.com

Ilmiy rahbar: Rustamova Faridaxon Anvarjonovna

Andijon davlat texnika instituti

"Iqtisodiyot" kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kapitalining asosi bo'lgan ta'lim darajasining aholi daromadlari va moddiy farovonligini oshirishdagi iqtisodiy roli tahlil qilinadi. Maqolada ta'limga kiritilgan investitsiyalarning shaxsiy va ijtimoiy samaradorligi, oliy va o'rta maxsus ta'limning mehnat bozorida o'rni hamda daromadlar tengsizligini kamaytirishdagi ahamiyati iqtisodiy modellar yordamida yoritilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasidagi bugungi mehnat bozori va ta'lim tizimidagi islohotlarning o'zaro mutanosibligi tahlil qilinib, aholi daromadlarini muttasil oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, aholi daromadlari, ta'lim darajasi, mehnat bozori, Mincer tenglamasi, investitsiya samaradorligi, daromadlar tengsizligi.

Аннотация: В данной статье анализируется экономическая роль уровня образования, являющегося основой человеческого капитала, в повышении доходов населения и материального благосостояния. Рассматриваются индивидуальная и общественная эффективность инвестиций в образование, роль высшего и среднего специального образования на рынке труда, а также их значение в снижении неравенства доходов с использованием экономических моделей. В статье также анализируется взаимосвязь между современным состоянием рынка труда и реформами системы образования в Республике Узбекистан, а также предлагаются научно-практические рекомендации по обеспечению устойчивого роста доходов населения.

Ключевые слова: человеческий капитал, доходы населения, уровень образования, рынок труда, уравнение Минсера, эффективность инвестиций, неравенство доходов.

Abstract: This article analyzes the economic role of the level of education, which forms the basis of human capital, in increasing household incomes and material well-being. The study examines the individual and social returns on investments in education, the role of higher and secondary specialized education in the labor market, and their importance in reducing income inequality through economic models. The article also analyzes the relationship between labor market conditions and ongoing educational reforms in the Republic of Uzbekistan and proposes scientific and practical recommendations aimed at ensuring the continuous growth of household incomes.

Keywords: human capital, household income, level of education, labor market, Mincer equation, investment efficiency, income inequality.

KIRISH

Klassik iqtisodiy nazariyalardan tortib zamonaviy makroiqtisodiy yondashuvlargacha, jamiyatning rivojlanishi va aholi farovonligining asosi sifatida ishlab chiqarish omillari (yer, mehnat, kapital) ko'rsatib kelingan. Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiyotda "inson kapitali" (human capital) tushunchasining shakllanishi iqtisodiy o'sish va shaxsiy daromadlar manbaiga bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirdi. Bugungi axborot va yuqori texnologiyalar asrida aholi daromadlarining shakllanishi shunchaki jismoniy mehnat sarfiga emas, balki bevosita ishchi kuchining intellektual salohiyati, bilim va ko'nikmalariga, ya'ni ta'lim darajasiga bog'liq bo'lib qoldi.



Ta'lim tizimi nafaqat ijtimoiy soha, balki iqtisodiyotning eng serdaromad va strategik tarmog'i hisoblanadi. Shaxsning ta'lim olish darajasi uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini, bandlik turini va, eng muhimi, oladigan ish haqining miqdorini belgilab beruvchi asosiy filtr vazifasini o'taydi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, oliy ma'lumotli mutaxassislar o'rta ma'lumotli ishchilarga qaraganda hayoti davomida bir necha barobar ko'proq daromad topadilar va ishsizlik xavfiga kamroq duchor bo'ladilar.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda aholi daromadlarini oshirish, kambag'allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan, aholi daromadlarini shakllantirish va tarkibiy jihatdan yaxshilashda ta'lim darajasining rolini iqtisodiy jihatdan tadqiq etish, mavjud tendensiyalarni aniqlash hamda ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim va daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asoslash inson kapitali nazariyasining vujudga kelishi bilan bevosita bog'liq. Bu borada jahon iqtisodiyot fani namoyandalari hamda mahalliy olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy olimlar tadqiqotlari: Inson kapitali nazariyasining asoschilari Teodor Shuls va Gari Bekker ta'limni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida e'tirof etishgan. Shuls ta'limni shunchaki ijtimoiy ne'mat emas, balki "investitsiya shakli" deb atagan bo'lsa, Gari Bekker o'zining fundamental asarida: "Ta'limga kiritilgan investitsiyalar nafaqat shaxsning daromadini, balki uning jamiyatdagi samaradorligini ham belgilaydi" [1], — deya ta'kidlaydi.

Jeykob Mincer esa ta'lim va ish tajribasining daromadga ta'sirini matematik modellashtirgan. Uning: "Har bir qo'shimcha ta'lim yili shaxsning kelajakdagi ish haqini eksponentsial ravishda oshiradi" [2], — degan xulosasi bugungi kunda ham mehnat iqtisodiyotining oltin qoidasi hisoblanadi. Shuningdek, Daron Ajemo'g'li va Jeyms Robinson ta'lim sifatining institutlar bilan bog'liqligini o'rganib, ta'lim darajasi yuqori jamiyatlarda inklyuziv iqtisodiy o'sish barqaror bo'lishini isbotlaganlar.

Mahalliy olimlar tadqiqotlari: O'zbekiston sharoitida aholi daromadlari va inson kapitali masalalari Q.X. Abdurahmonov, N.K. Zokirova va B.Sh. Usmonov kabi iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

Akademik Qalandar Abdurahmonov o'zining "Mehnat iqtisodiyoti" asarida: "Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim darajasi va innovatsion faollik aholining moddiy farovonligini belgilovchi asosiy omildir", — deb ta'kidlaydi. Iqtisodchi olim N.K. Zokirova esa O'zbekistondagi mehnat bozori transformatsiyasini tahlil qilib, oliy ta'lim kvotalarini oshirish aholining kambag'allikdan chiqishidagi eng asosiy "lift" ekanligini qayd etadi. Olimlarning fikriga ko'ra, so'nggi yillardagi islohotlar natijasida ta'limning daromadliligi (returns to education) bo'yicha ko'rsatkichlar yuqori malakali mutaxassislar segmentida keskin o'sgan.

Muallif munosabati: Yuqoridagi xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlarini umimlashtirgan holda shuni ta'kidlashim kerakki, biz Gari Bekker va Jeykob Mincerning "ta'lim — kelajak daromadi uchun investitsiya" degan qarashlarini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Biroq zamonaviy O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida faqatgina ta'lim yillari soni (miqdoriy ko'rsatkich) daromadning yuqori bo'lishini kafolatlay olmaydi, deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, bugungi mehnat bozorida "diplom effekti"dan ko'ra, "ko'nikmalar mutanosibligi" (skill-match) muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Mahalliy olim Abdurahmonovning fikrlari bilan hamohang ravishda shuni qo'shimcha qilamizki, ta'lim darajasi yuqori bo'lishi bilan birga, u raqamli texnologiyalar va mehnat bozorining real talablariga (soft skills) javob bermasa, ta'limga tikilgan investitsiyaning shaxsiy samaradorligi pasayib ketishi mumkin. Shu sababli aholi daromadlarini oshirishda ta'limning nafaqat darajasiga (bakalavr/magistr), balki uning sifatli tarkibiga e'tibor qaratish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ta'lim darajasining aholi daromadlariga ta'sirini o'rganish uchun miqdoriy va sifat tahlili (quantitative and qualitative analysis), statistik guruhlash, qiyosiy iqtisodiy tahlil hamda Mincer modeliga asoslangan nazariy-deduktiv yondashuvlardan foydalanildi.

Tahlillar uchun asosiy ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari, Jahon banki (World Bank) va Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) hisobotlari hamda mamlakatimizda o'tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy so'rovnomalar natijalari olindi. Asosiy e'tibor aholining ta'lim darajasi bo'yicha (oliy, o'rta maxsus, umumiy o'rta) guruhlanishi va ularning o'rtacha oylik daromadlari o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlarini aniqlashga qaratildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnat bozorining fundamental qonuniyatlariga ko'ra, ish beruvchi xodimga uning yaratgan chekli mahsuloti qiymatiga (marginal product of labor) qarab haq to'laydi. Ta'lim darajasi yuqori bo'lgan ishchi zamonaviy texnologiyalarni tez o'zlashtiradi, murakkab muammolarni hal qila oladi va vaqt birligi ichida ko'proq qiymat yaratadi.

Quyidagi jadvalda ta'lim darajasining aholi guruhlari bo'yicha o'rtacha oylik daromad va ishsizlik darajasiga ko'rsatadigan global va milliy tendensiyalar umumlashtirilgan (1-jadval):

1-jadval

Ta'lim darajasining aholi guruhlari bo'yicha o'rtacha oylik daromad
va ishsizlik darajasiga ko'rsatadigan global va milliy tendensiyalar¹

Ta'lim darajasi	O'rtacha daromad koeffitsiyenti (Umumiy o'rtaga nisbatan)	Ishsizlik xavfi	Mehnat bozoridagi asosiy bandlik sektori
Oliy ma'lumot (Magistr, PhD)	1.8 – 2.5 barobar yuqori	2.5% – 3.5%	IT, Moliya, Boshqaruv, Ilm-fan, Audit
Oliy ma'lumot (Bakalavr)	1.4 – 1.6 barobar yuqori	4.0% – 5.0%	Ta'lim, Sog'liqni saqlash, Davlat xizmati, Muhandislik
O'rta maxsus (Kollej, Texnikum)	1.0 (Baza)	6.5% – 8.0%	Xizmat ko'rsatish, Qurilish, Ishlab chiqarish, Transport
Umumiy o'rta ma'lumot (Maktab)	0.6 – 0.8 barobar past	10.5% – 12.0%	Malakasiz mehnat, Qishloq xo'jaligi, Mavsumiy ishlar

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ta'lim darajasi oshgani sayin nafaqat daromad miqdori oshadi, balki iqtisodiy inqirozlar davrida ishsiz qolish ehtimoli ham keskin kamayadi. Buni iqtisodiyotda "Filtr nazariyasi" (Signaling Theory) ham tushuntirib beradi: oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom ish beruvchi uchun xodimning nafaqat bilimini, balki uning intizomi, maqsadga intiluvchanligi va intellektual salohiyati borligidan dalolat beruvchi signal hisoblanadi. Inson o'z ta'limi uchun sarflagan har bir yili kelajakda unga moliyaviy dividend keltira boshlaydi. Global tadqiqotlarga ko'ra, maktabdan keyingi ta'limning har bir qo'shimcha yili insonning yillik daromadini o'rtacha 8% dan 12% gacha oshiradi. Dunyo miqyosida ushbu ko'rsatkich rivojlanayotgan davlatlarda yanada yuqoriroqdir, chunki bunday mamlakatlarda yuqori malakali kadrlarga bo'lgan taqchillik kuchliroq bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim tizimidagi qabul kvotalarining oshirilishi va xususiy universitetlarning paydo bo'lishi mehnat bozoriga malakali kadrlarning kirib kelishini tezlashtirdi. Bugungi kunda moliya, buxgalteriya hisobi, bank ishi, IT va xalqaro huquq yo'nalishlarida ta'lim olgan mutaxassislarining daromadlari milliy o'rtacha ish haqidani bir necha barobar yuqoriligicha qolmoqda.

Muhokama. Ta'lim darajasi aholi o'rtasidagi kambag'allik tuzog'idan (poverty trap) chiqishning eng samarali vositasidir. Kam ta'minlangan oilalar farzandlarining sifatli ta'lim olishi ijtimoiy mobillikni (social mobility) ta'minlaydi. Ya'ni, ta'lim quyi tabaqadan yoki kam daromadli oiladan chiqqan yoshlarga yuqori daromadli qatlarga ko'tarilish imkoniyatini beradi. Muhim bog'liqlik: zamonaviy iqtisodiyotda ta'lim darajasining pastligi nafaqat bugungi kundagi kam daromadlilikka, balki kelajak avlodlarning kambag'allikda qolishiga zamin yaratadi. Bu hodisa "kambag'allikning avloddan avlodga o'tishi" deb ataladi va uni faqat ta'lim orqali sindirish mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9–10 foizdan 40 foizdan oshdi. Bu juda katta ijobiy siljish bo'lib, mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi integratsiya ham izchil rivojlanib bormoqda. Strukturaviy muvofiqlashuv jarayoni: OTMlarni bitirayotgan kadrlar yo'nalishi bilan mehnat bozoridagi talab o'rtasidagi uyg'unlikni yanada kuchaytirish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, iqtisodiyot va gumanitar sohalar bilan bir qatorda muhandislik, biotexnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish yo'nalishlarida ham malakali kadrlar tayyorlash ko'lamini kengayib bormoqda. Bu esa yoshlarning o'z mutaxassisligi bo'yicha munosib daromad topishi va professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Sifat omili va raqamli ko'nikmalar: bugungi kunda diplom bilan bir qatorda amaliy bilim va ko'nikmalarning ahamiyati ortib bormoqda. Mehnat bozorida "funksional savodxonlik" va "soft

1 Manba: muallif ishlanmasi.



skills" (kommunikatsiya, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash) hamda ingliz tili, raqamli buxgalteriya, moliyaviy tahlil kabi amaliy ko'nikmalarga ega kadrlarga yuqori haq to'lanmoqda. Norasmiy mehnat bozori va malaka rivoji: mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholining ma'lum qismi norasmiy sektorda va chet eldagi mehnat migratsiyasida faoliyat yuritmoqda. Ularning kasbiy salohiyatini oshirish va malakasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar xorijda ham, ichki bozorda ham yanada yuqori daromadli mehnat segmentlariga kirib borish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi daromadlarini barqaror shakllantirish va ularning real o'sishini ta'minlashda ta'lim darajasi eng asosiy determinant hisoblanadi. Ta'limga tikilgan investitsiya insonning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini va mamlakatning umumiy iqtisodiy quvvatini ta'minlaydi. Mamlakatimizda aholi daromadlarini ta'lim darajasini oshirish orqali yanada yuksaltirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

Ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish: OTMlar va professional ta'lim muassasalarida o'quv rejalarini ish beruvchilar (yirik korxonalar, auditorlik kompaniyalari, banklar va IT sektori) talablaridan kelib chiqib shakllantirish, amaliyot soatlarini keskin ko'paytirish. Uzlaksiz ta'lim (Lifelong Learning) tizimini rivojlantirish: zamonaviy iqtisodiyot tez o'zgaruvchan bo'lgani sababli, aholining qayta tayyorlanishi va malaka oshirishini ta'minlovchi qisqa muddatli kurslar, raqamli ta'lim platformalarini davlat tomonidan rag'batlantirish. Moliyaviy va iqtisodiy savodxonlikni oshirish: aholining, ayniqsa yoshlarning zamonaviy moliyaviy instrumentlar, soliq tizimi, buxgalteriya hisobi asoslari va biznesni yuritish bo'yicha ko'nikmalarini maktab davridanoq shakllantirish. Bu ularning kelajakda tadbirkorlik faoliyati orqali yuqori daromad topishlariga zamin yaratadi. Hududiy tengsizlikni kamaytirish: chekka hududlardagi yoshlarning sifatli professional va oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ular uchun ta'lim grantlari va maqsadli kvotalar tizimini yanada takomillashtirish.

Boylik va yuqori daromad manbai endilikda tabiiy resurslar emas, balki insonning ongi va bilimidir. Aholi ta'lim darajasining muntazam oshib borishi mamlakatda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi iqtisodiyotni shakllantirishning yagona kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. National Bureau of Economic Research.
2. Mincer, J. (1974). Schooling, Experience, and Earnings. National Bureau of Economic Research.
3. Abdurahmonov Q.X. (2019). Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: "FAN", 2019.
4. Zokirova N.K. (2021). O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari. Ilmiy maqola.
5. Schultz, T. W. (1961). Investment in Human Capital. The American Economic Review.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>